



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

YAPON TILI IYEROGFLI FLARNI O'QITISHGA YANGICHA YONDASHUV

Saydiyeva Dilafruz Asadullayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti Qiyosiy tilshunoslik lingvistika (yapon tili) yo'nalishi 2-bosqich magistr

INFO:

Qabul qilindi: 22.02.2022
Ko'rib chiqildi: 22.02.2022
Chop etildi: 23.02.2022

Kalit so'zlar: yapon tili,
iyerogliflar, ta'lim, metod,
metodika, mnemotexnika,
kompyuter imitatsion modellar

ANNOTATSIYA

Maqolada yapon tili iyerogliflarini o'qish va yozishga oid amaliy ko'nikmalarni kompyuter modellari yordamida rivojlantirish borasida tadqiqotchi F.M.Lutfilloeva tomonidan taklif qilingan mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellarning ahamiyati yoritilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Bugungi kunda chet tillarni, jumladan, yapon tilini o'rganish va bu tilni o'qitish mazmunini takomillashtirishga alohida ahamiyat bilan qaralmoqda. Yapon tilini mukammal o'rganish va uni amalda qo'llay olish uchun yapon tili yozuv tizimida eng murakkab sanalgan iyerogliflarning samarali o'rgatish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb qaraladi. Yapon tilini o'rganishdagi eng katta qiyinchilik sifatida bu iyerogliflarni keltirish mumkin. Bugungi kunda yapon tili iyerogliflari murakkab ko'p darajali strukturaga ega. Unda leksik birlikning ideografik va fonetik usullari mujassamlashganligini ko'ramiz. Aynan shu sababli yapon tili iyerogliflarini o'rganish o'quv jarayonida kerakli murakabliklarni vujudga keltiradi. Yapon tili yozuv tizimini o'qitish jarayonida iyerogliflarning psixologik xususiyatlari tushunchasiga ega bo'lmaslik, iyeroglifika materialini o'zlashtirish samaradorligini kamaytiradi hamda yapon tilini mutlaq til sifatida qabul qilish motivatsiyasini pasaytiradi.

Ertami-kechmi yapon tilini o'rganishni boshlagan ko'pchilik yaponcha belgilarni ham o'rganishni boshlaydi. Yaponlarda shunday naql bor: "Iyeroglif yozayotganda qanday o'tirsang, shunday yozasan".

Ma'lumki, chet tillarni o'rganishda juda ko'p usul va metodlar qo'llaniladi. Har bir metod o'ziga xos yutuq va kamchiliklarga ega. Bir qancha olimlar mnemotexnika tizimi yordamida chet tillarini rivojlantirish dinamikasiga alohida ahamiyat qaratishgan. Bu borada Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchi Lutfilloeva Faxriniso Maxmudovnaning ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash zarur. Tadqiqotchi F.M.Lutfilloeva tomonidan yapon tilini o'qitish metodikasiga doir ilmiy izlanishlar va yapon tilini xorijliklarga o'rgatish muammosi xususan, o'zbek talabalari uchun begona til tizimidagi iyerogliflarning o'qilish turiga oid morfemik birliklarni obrazli tarzda milliy kontekstda shakllantirish va mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o'qitish metodikasi ustida ilmiy tadqiqot olib borilmoqda.

Bu borada xorij va yurtimiz olimlari tomonidan bir qator metodik qo'llanmalar yaratilganligiga qaramasdan, talabalarning o'zga til morfemik birliklarini obrazli tarzda milliy kontekstda shakllantirishda yapon tili iyerogliflarini hikoyalar asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib, o'qitish metodikasi samarali deb hisoblanmoqda.

Bundan kelib chiqqan holda tadqiqotchi F.M.Lutfilloeva yapon tilidagi oddiy, bir va undan ortiq o'qilish turiga ega bo'lgan iyerogliflar uchun (山、万、円、川、火、田) 13 ta, o'rta murakkab, ikki va undan ortiq o'qilish turiga ega bo'lgan iyerogliflar uchun (子、何、水、人、土、方) 8 ta va murakkab uch va undan ortiq iyerogliflar uchun (高い、上、下、雨、日) 7 ta kompyuter imitatsion modellar tavsiya qilmoqda.

Yapon tili alfavitining murakkabligi bois, undagi mavjud iyerogliflarning mazmun mohiyatini ma'lum bir obyektga akslantirib, esda qoldirish usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Yapon tilida har bir iyeroglif ikki va undan ortiq o'qilish turiga ega. Bu tilda iyerogliflardagi mavjud morfemik birliklarni esda saqlash va amalda qo'llash murakkab hisoblanadi. Shu sababli mnemotexnik usul yordamida kompyuter imitatsion modellar asosida har bir iyeroglifning mantiqiy shakl tizimini yoritib berish va undagi mavjud morfemik birliklarni mnemotexnika usuli orqali o'zbek tilidagi talaffuzga o'xshash so'z bilan uyg'unlashgan holda ma'noli gap yasash orqali tushuntirib berish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan metodika oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqich talabalar uchun yapon tili iyerogliflarining milliy kontekstda obrazli namoyishi, iyerogliflar bo'yicha mashqlar va topshiriqlar tizimidan foydalanish, mnemotexnik metod loyihasi, kompyuter imitatsion modellar, yapon tili o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarni, xususan, yapon tilini mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellar yordamida o'qitish orqali xalqaro standartlarda qo'yilgan vazifalarni ta'minlash yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Xususan, yapon iyerogliflarning o'qitishda mavjud morfemik birliklarni obrazli tarzda mnemotexnika asosida milliy kontekstda ishlab chiqish va kompyuter imitatsion model orqali talabaga taqdim etish orqali o'quv jarayonini qulay va samarali tashkil qilishga olib keladi. Bu o'z navbatida, malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblangan ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini bilim, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayonida mustaqil ta'lim mazmunini ishlab chiqish, va pedagogik izlanishlar olib borish dolzarbligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Лутфиллоева Ф.М. Компьютер имитацион моделларидан фойдаланиб, хикоялар (мнемотехника) асосида япон тили иероглифларини ўқитиш методикаси. - Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Самарқанд, 2022 йил. -137 б.
2. Lutfilloeva F.M. Япон иероглифларини мнемотехника асосида компьютер имитацион моделларидан фойдаланиш // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2021. -№2. –В. 63-67.
3. Лутфиллоева Ф.М. Мураккаб 高い、上、下、雨、日 уч ва ундан ортиқ ўқилиш турига эга иероглифларнинг хикоя асосида компьютер имитацион моделлар ёрдамида ўқитиш методикаси // Илмий ахборотнома. Гуманитар фанлар серияси. – Самарқанд, СамДУ, 2020.- № 6(124) –сон. - Б. 134-140.
4. Лутфиллоева Ф.М. Япон иероглифларини ўқитиш методикаси ва ривожланиш тенденциялари // Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим. – Самарқанд, - 2020.-№4 (77). –Б.93-100.
5. Lutfilloeva F., Tuhtasinov I.M. The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019) // Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>.
6. Lutfilloeva F.M., Tuhtasinov I.M. Teaching Japanese hieroglyphics based on mnemonics // Available at SSRN: April 3, 2020 <https://ssrn.com/abstract=3567573>.
7. Karimova U.B. Япон тили алфбоси лойihalari va ularning belgilarini yozish qoidalari. – Toshkent.: Fan, 2007.
8. Karimova U.B. Япон yozuv tizimi rivoji muammolari. – Toshkent.: Fan, 2008.